

Vatan muhofazasi

Bu kunda yer yuzidagi butun davlatlarning hatto hamma kishining diqqatini jalg etgan narsa ma'lumki Ovrupo muhorabasidir. Boshida Avstriyadan chiqqon bu tovush endi Orupog'ag'ina emas yerning eng uzoq go'shalarigacha borub butun dunyonni bir fitna o'chog'ig'a aylandirdi. Bu tovush etuvi ila har davlatda ehtiyoj alomatlari ko'rila boshladi ko'p mamlakatlar o'zlarining quruq va suqtularini muhoraba holiga aylandurmakka majbur bo'ldilar. Sabab har biriga o'zining vatan dushmanidan saqlamak lozim bo'ldi. Mamlakat uchun o'zining tuprog'ini saqlamak kabi muhim va muqaddas bir vazifa yo'qdur. Chunki nufus va aholining rafoh va saodati yolg'iz vatanning salomatligiga bog'laydur. Bizim vatanimiz Rusiya mamlakati o'zining quvvati va tadbirli bo'lishi soyasida bu kung'acha o'zining tinchli bo'lgan vaziyatini o'zgartirmasdan, doimo aholini taraqqiy va tamaddunga suq qilish ila mashg'ul bo'lub keldi. ... hech bir vaqtda tinchlikni buzmadi. Buning ila barobar o'zining vaziyatiga xalal ketirmak qasdida bo'lgan dushmanlarini ham mudabbirona ta'dib qilub keldi. Endi bukun xilqat olamidan beri misli ko'rilmagan bir inqilob davriga hamma davlatlar uchragani kabi tabiiy bizim davlatimiz ham uchradi. Vatanimiz Rusyaning vasiyat va ma'muriyatini ko'pdin beri ko'rolmay kelgan ikki hasadchi dushman birdan Rusiyani xarob etmakchi bo'lub hujum qilub edilar. Lekin ish alar o'ylag'oncha chiqmadi. Rusyaning qahramon askari ul dushmanlarni kelgan yo'llaridan orqag'a qaytmakga majbur etdi g'arb hududlarimizni kemura boshlag'on bu ikki o'tkur tish o'zlarnga bo'lgan qadar vatanlariga ham ziyon ko'rub oldilar. Rusyaning muttafiq birodarlari ham anga bu tunlagan muhofaza qilmak niyati ila ishga kirishdilar. O'zlariga moddiy va ma'naviy ko'p ziyon ko'rsalar ham orada bo'lgan do'stlik va'dalarin biriga yetkuzmak yo'lida alar buncha fidokorlik ko'rsatadilar. Serbiya va Beeljika davlatlari tarafidan Germaniya va Avstriya no'talarining qabul etilmaviga sabab ham shul "Vatan muhofazasi" dir vatan muhofazasi uchun milliardlar sarf qilinub milliyunlarcha vatan bolalarning qurbon bo'lishig'a hech taajub etmakga o'run yo'q. Chunki vatanning dushman tarafidan yutulmog'ig'a nisbatan mazkur halokatlar yo'q darajasida ozdirlar. Vatansiz qolmak esa shul yo'lda qurbon bo'lmaidan ham og'ir bir ishdir.

Hozirgi vaqtda vatan bolalari askarlar g'arb hududlarin dushmanidan saqlavila mashg'uldirlar. Bular orasida bizim vatandoshlik jihatidan yaqinlarimiz bor bo'lgan kabi din jihatidan ham qarindoshlarimiz ko'pdir. Kerak qaysi mazhabdan bo'lsin bular hammasi bizim vatanimiz uchun bir qoshiq qonlari qolgancha muhorabaga yig'ilgan birodarlarimizdir. Bizim borlik umidimiz shul qahramon askarlarimzdadir Rusiya mamlakatining har tarafi bular ila saqlangani kabi asl vatanimiz Turkistonning ham muhofazasi bular qo'lidadir. Biz Turkiston muslimmonlari asrlardan beri tinchlik va rohat ila yashab kelgan tuprog'imizni muhofazasini yolg'iz shul askarimizdangina kuta olamiz chunki vatanimiz Rusyaning butunligi buzulmavi ilagina bizim tuproqlar obod bo'la olurlar. O'g'il va otalarimizni ota va bolalaridan ayirub askarlikg'a yubormasdan va rohatimizni buzmasdan, bundog' halokat zamonlarida bul tariqa tinchg'ina umr kechirishimiz bizim uchun taqdir qilinub bitmasday ulug' bir ne'matdir. Endi shul ne'matning qadrini bilub bizlar ham qo'limizdan kelgan qadar hukumat va askarimizg'a moddiy

va ma’naviy yordamda bo‘ling‘onimiz lozimdir. Rusiyadagi bizdin boshqa musulmonlar o‘zlarining aziz bolalarini vatan muhofazasi yo‘lig‘a yubora va bunga qanoat qilmasdan hukumatimizga har turli yordamlar qilub turmakdadirlar. Xususan totor qarindoshlarimizning har yerida vatanparvarlik namoyishlari yasab askar foidasiga komitetlar tashkil qilganlarini jarida va teleg‘ramlarda o‘qub shodlanmakdamiz. Toshkanda ham bir qatra totorlar o‘zlarining borliklarini va sodiq tobe’lik hisslarini olamga ko‘rsatdilar. Bizlar ham pul ila alo qadari hol yordamda bo‘lindik. Lekin bizim bu yordamimiz vatan muhofazasi yo‘lida nihoyatda kichik bir ionadir. Bu kundan boshlab Turkistonda bo‘lgan har shaharda yordam komitetlari ochilsa, ulug‘ va kichik iona hammasi shularg‘a yig‘ilub hukumatimizg‘a topshirilub turilsa bizlar ham “vatan muhofazasi” yo‘lida juz’iy bir xizmat ko‘rsatgan bo‘lur edi.

Bu bizim eng muhim vazifamiz, buni musohala qilmak ulug‘ bir ayb qusur bo‘lsa kerak.

Ubaydulloh.

Ubaydulloh Asadullaxo’jayev.

“Sadoyi Turkiston” gazetasi. - 1914. - 6 sentyabr. № 38.

(O.Z.)